

MAQOLLARDA OZIQ-OVQAT NOMLARINING METAFORIK VA OBRAZLI QO'LLANILISHI

Buxoro xalqaro universiteti

2-kurs magistranti;

Yunusova Kamola Ganjiyevna

Email:

Yunusovakamola1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek xalq maqollarida oziq-ovqat leksemalarining (nomlarining) tutgan o'rni, ularning ko'chma ma'noda qo'llanilishi va obrazlilik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqollarda "non", "tuz", "asal", "osh" kabi so'zlarning inson xarakteri va ijtimoiy munosabatlarni ifodalashdagi metaforik funksiyalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Maqol, paremiologiya, lingvokulturologiya, metafora, oziq-ovqat leksemalari, obrazlilik, milliy xarakter.

Abstract: This article analyzes the role of food lexemes (names) in Uzbek folk proverbs, their figurative use and figurative features. The proverbs reveal the metaphorical functions of words such as "bread", "salt", "honey", "dish" in expressing human character and social relations.

Keywords: Proverb, paremiology, linguoculturology, metaphor, food lexemes, figurativeness, national character.

Аннотация: В данной статье анализируется роль пищевых лексем (названий) в узбекских народных пословицах, их переносное использование и

образные особенности. Пословицы раскрывают метафорические функции таких слов, как «хлеб», «соль», «мёд», «блюдо», в выражении человеческого характера и социальных отношений.

Ключевые слова: Пословица, паремиология, лингвокультурология, метафора, пищевые лексемы, образность, национальный характер.

KIRISH

Xalq og‘zaki ijodining eng ixcham va mazmundor janri bo‘lmish maqollar xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi. Har bir millatning tili uning madaniyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu bog‘liqlik maqollarda ishlatiladigan obrazlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Inson hayotining asosi bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari til qatlamida nafaqat iste‘mol predmeti, balki chuqur ramziy ma‘noga ega bo‘lgan metaforik birliklar sifatida ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek paremiologik fondida oziq-ovqat nomlari bilan bog‘liq yuzlab maqollar mavjud bo‘lib, ularni o‘rganish milliy mentalitetni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Oziq-ovqat nomlarining maqollarda metaforik qo‘llanilishi asosan insonning ma‘naviy qiyofasini, ijtimoiy holatini yoki hayotiy vaziyatlarni tavsiflashga xizmat qiladi. Quyida eng ko‘p qo‘llaniladigan leksemalarni tahlil qilamiz:

1. "Non" obrazining muqaddaslik va hayot ramzi sifatidagi talqini. O‘zbek xalqi uchun non eng muqaddas ne‘mat hisoblanadi. Maqollarda non obrazi orqali insonning mehnati, rizq-ro‘zi va ijtimoiy mavqeyi ifodalanadi: *"Noni butunning - dardi butun"* - Bu yerda "non" moddiy farovonlik va xotirjamlik metaforasidir. *"Kishi noni kishiga tikan bo‘lib sanchilar"* - Bu maqolda o‘zga kishining minnatli yordami "tikan" obrazi orqali salbiy bo‘yoq olgan.[1]

2. "Tuz" - sadoqat va insoniy munosabatlar o'ldiruvchi. Tuz oziq-ovqatda ta'm beruvchi vosita bo'lishidan tashqari, maqollarda "haq", "minnatdorchilik" va "sadoqat" ma'nolarini tashiydi: *"Tuzini ichib, tuzlig'iga tupurmoq"*. Bu yerda tuz ichish yaxshilikni ko'rishni, tuzlig'iga tupurish esa nonko'rlik va xiyonatni metaforik ifodalaydi.[2]

3. "Asal, shakar va shirinliklar" - nutq va xarakter ifodasi. Shirin ta'mga ega mahsulotlar maqollarda insonning so'zlashuv madaniyati va muomalasini tavsiflaydi: *"Gapirsang, gapning bolini ayt"* - Yaxshi, yoqimli so'z "bol" (asal)ga qiyoslanmoqda. *"Halvo degan bilan og'iz chuchimas"* - Faqat quruq gap bilan natijaga erishib bo'lmashligi, harakat kerakligi ta'm sezgisi orqali obrazli ifodalangan.[3]

4. "Osh va mevalar" - ijtimoiy munosabatlar ramzi. *"Oshing halol bo'lsa, ko'chada ich"* - Bu yerda "osh" insonning qilgan amali va topgan daromadining ramzidir. *"Mevali daraxtga tosh otarlar"* - Yaxshi, foydali inson "meva" beruvchi daraxtga qiyoslanib, ko'p tanqidga uchrashi metaforik tasvirlangan.[4] "Oshing halol bo'lsa, ko'ngling xotirjam." "Osh" bu yerda halol mehnat mahsuli ma'nosida qo'llangan. Taom-mehnat natijasi. Halol rizq ruhiy xotirjamlikni ta'minlaydi degan axloqiy g'oya ilgari suriladi. "Bir qozon osh - ming kishiga bosh." Osh - birlik va hamjihatlik ramzi. Bu maqolda oz narsa ham birdamlik bilan baraka topishi ifodalanadi. Osh birlik -baraka manbai. Miqdoriy kamlik ijtimoiy birdamlik orqali to'ldiriladi.

5. Sut va qatiq. "Sut bilan kirgan jon bilan chiqar". "Sut" - tarbiya va bolalikdan singgan qadriyat ramzi. Sut -tarbiya va asl tabiat. Bolalikdan shakllangan fazilat umr bo'yi saqlanadi degan ma'no anglashiladi. Og'zi kuygan qatiqni ham puflab ichar." Qatiq - oddiy taom, ammo bu yerda ehtiyotkorlik timsoliga aylangan. Issiqlik- tajriba, puflash- ehtiyotkorlik tushunchasi aks ettirilgan. Oldingi salbiy tajriba insonni hushyor qiladi. [5]

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek maqollarida oziq-ovqat nomlarining qo‘llanilishi shunchaki tasodif emas, balki xalqning asrlar davomida shakllangan kognitiv tajribasi mahsulidir. Non -hayot va mehnatni, tuz - sadoqatni, asal-shirinso‘zlikni anglatuvchi barqaror metaforalarga aylangan.[9] Bunday obrazli ifodalar tilning badiiy boyligini oshirish bilan birga, yosh avlodga murakkab hayotiy tushunchalarni sodda va ta’sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Oziq-ovqat nomlari ishtirokidagi maqollar o‘zbek xalqining milliy-madaniy tafakkurini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklardir. Ular orqali xalqning nonni muqaddas bilishi, oshni birlik ramzi sifatida qadrlashi, tuzni sadoqat timsoli deb e’zozlash kabi qadriyatlari namoyon bo‘ladi. Mazkur maqollarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib berishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.[8]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Sharq, 2001.
2. Safarov Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Akedemnashr, 2021.
3. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.
4. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2005.
5. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
6. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001.
7. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012.
8. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2005.
9. Safarov Sh. Til va tafakkur masalalari. – Toshkent: Fan, 2008.

10. Ganjiyevna, Y. K. (2025). MAHMUD KOSHG'ARIYNING" DEVONU LUG'AT-TURK" ASARIDA KELITIRILGAN O'ZBEK XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK TAHILILI. *TADQIQOTLAR*, 75(2), 220-224.